

CNN TELEKANALIDA OSIYO DAVLATLARIGA OID AXBORIY MATERIALLARNING BERILISHIDA TELEVISION ASAR KOMPONENTLARI: PLAN VA TITR.

Dauletbaeva Dilshada Dastanovna

Magistr, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat universiteti

“Plan” deb kadrda tasvir ko‘lamiga masshtabiga aytiladi. “Plan” tushunchasi tasvirlanayotgan shakl yoki predmetning ekrandagi yiriklik darajasi, tasvirga olinayotgan obekt bilan kamera o‘rtasidagi oralik masofa hamda ob‘ektivning fokus oralig‘i, ya‘ni suratga olinadigan predmetlarning aniq tiniq ko‘rinadigan nuqta masofasi bilan bog‘lik tushuncha.

Odatda plan uch turga bo‘linadi: umumiy, o‘rta va yirik. Lekin professional kino va televideniye xodimlari uni **olti turga** bo‘ladi [1]:

1. Cheksiz, nihoyatda uzoqdan olingan plan - deylik, kosmosdan turib Yerni suratga tushirish, odam va uni o‘rab turgan butun borlikni tasvirlash);
2. Umumiy plan (odamning bor buy-basti bo‘yicha olingan kadr);
3. O‘rta plan (odamning tizzasigacha bo‘lgan tasviri);
4. O‘rta yiriklikdagi plan (belgacha bo‘lgan plan);
5. Yirik plan (odamning yuz, bosh qismi tushirilgan kadr);
6. Makroplan kadrning bir kismi, fragmenti: (masalan ko‘z, quloq, qosh, kiprik, mo‘ylov, asalarining oyog‘idagi paxmoq tuklarigacha va hokazo.)

Ma‘lumot o‘rnida ta‘kidlash kerakki, plan katta yoki kichikrok bo‘lishi mumkin, biroq u hech qachon uzun yoki qisqa bo‘lmaydi. Shu sababli bu ta‘riflar biroz nisbiy tushuncha hisoblanadi [2].

CNN telekanalida cheksiz, nihoyatda uzoqdan olingan plan asosan, ilm-fanga oid yangiliklar haqida lavhalar tayyorlanganda efirga beriladi. Xususan, 2023 yil 28 mart kuni Astrofizik professor Adam Frank “Astrofizik nima uchun sayyoralarni yalang‘och ko‘z bilan ko‘rish kamdan-kam hollarda ekanligini tushuntiradi” (Astrophysicist explains why seeing planets with the naked eye is rare) [3] mavzusida 2 daqiqa 55 soniyali lavha efirga berildi. Unda beshta sayyora, jumladan, Merkuriy, Venera, Mars, Yupiter va Uran Oy ostida bir qatorda, ba‘zan sayyoralar paradi yoki tekislash deb ataladigan displeyda ajoyib tasvir paydo bo‘lishi tushuntiriladi. Professor

so‘zining isboti sifatida cheksiz, nihoyatda uzoqdan olingan planda sayyoralar tizimini lavhaning 40 soniyasidan 46 soniyasiga qadar ko‘rsatadi.

Undan tashqari, telekanalda 2023 yil 10 mart kuni NASA 2046 yilda Yerga tushishi mumkin bo‘lgan asteroidni kuzatmoqda mavzusida (NASA tracking asteroid that has potential to hit Earth in 2046[4]) 4 daqiqa 18 soniyali lavhasini efirga beradi. Unda NASAning navigatsiya muhandisi Davide Farnocchidan NASAning Sayyoraviy mudofaani muvofiqlashtirish boshqarmasi ma‘lumotlariga ko‘ra, yangi kashf etilgan asteroid taxminan olimpiya basseyniga teng bo‘lgan asteroid 23 yil ichida Yer bilan to‘qnashuvi «juda kichik imkoniyatga» ega va potentsial ta‘sir lahzasi 2046 yil “Sevishgan”lar kunida sodir bo‘lishi mumkinligi haqida intervu olinadi. Yerga tushishi kutilayotgan asteroidning fazodan olingan tasvirlari dastlab 5 soniyadan 16 soniyaga qadar efirga beriladi. Ikkinchi marta bunday kadrlar 38 soniyadan 1 daqiqa 11 soniyagacha, uchinchi marta 2 daqiqa 59 soniyadan 3 daqiqa 25 soniyaga qadar NASA tomonidan koinotdan tushirilgan kadrlar efirga beriladi.

CNN telekanalida umumiy planda odamning bor bo‘y-basti bo‘yicha olingan - to‘liq metrajli: to‘liq o‘shida bo‘lgan shaxs doirasidagi kadrlar studiyada tayyorlangan boshlovchi so‘zida efirga beriladi. Masalan, joriy yili 26 aprel kuni “Qamoqqa olingan Putin tanqidchisi bir kishilik kamerada qolish haqida hazil qiladi” (Jailed Putin critic jokes about solitary confinement [5]) mavzusida 4 daqiqa 11 soniyali lavha beriladi. O‘sha joydan undan studiyada turgan holda intervyu olinadi. Jarayonda jurnalist Lynda Kinkade 34 daqiqadan 1 daqiqa 8 soniyaga qadar kadrda butun bo‘y basti bilan turib, qamoqdagi rossiyalik muxolifatchi Aleksey Navalniy karserga qaytishdan oldin jurnalistlar bilan suhbatlashadi.

O‘rta plan:odamning tizzasigacha bo‘lgan tasvirida CNN muxbiri Selina Wang Xitoy parlamenti a‘zosi CNN savollariga javob berishdan bosh tortgani haqida (Member of Chinese parliament runs from CNN’s questions [6]) 2023 yil 8 mart kuni 8 daqiqa 10 soniyali lahva tayyorlaydi. Unda Xitoy parlamentining yillik yig‘ilishida jurnalistlar duch keladigan cheklovlarni muhokama qiladi. Reportajning 1 daqiqa 6 soniyasida 26 soniyaga qadar muxbir Xitoy parlamenti oldiga yurib boradi va u kadrda o‘rta planda ko‘rinish beradi. 1 daqiqa 48 soniyadan 2 daqiqagacha bo‘lgan bino ichidagi holarda ham Selina Wang tizzasigacha ko‘rinadi.

O‘rta yiriklikdagi belgacha bo‘lgan planda CNN telekanalida Rossiyaning Ukraina shahrini tinimsiz bombardimon qilish oqibatlari haqida (Aerial footage shows aftermath of Russia’s relentless bombing of Ukrainian city [7]) CNN xalqaro xavfsizlik bo‘yicha katta muxbiri Nik Paton Walsh 2023 yilning 26 aprel sanasida maxsus reportaj 3 daqiqa 33 soniyali lavha tayyorlab, efirga beradi. Unda Nik Paton Walsh 3 daqiqa 8 soniyadan 28 soniyaga qadar o‘rta yiriklikdagi planda tomoshabinlarga ma‘lumot beradi.

CNN xalqaro muxbiri Melissa Bell 2022 yil 26 oktabrda Doktor rus askarlarining noto‘g‘ri hujumdan olgan jarohatlarini aniqladi (Doctor reveals Russian soldiers’ injuries from botched assault [8]) mavzusida reportajni efirga berdi. 10 daqiqa 359 soniyali reportajning 6 daqiqa 18 soniyadan 7 daqiqa 11 soniyaga qadar jarohatlangan askarlarning qovurg‘a, oyoq va qo‘l suyaklarini rentgen nurlaridagi ko‘rinishini makroplanda namoyish etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Александр Алексеевич Князев Основы тележурналистики и телерепортажа. Учебное пособие/ Кыргызско-Российский Славянский университет. – Бишкек: Изд-во КРСУ, 2001. – С.99 б
2. Амрилло Каримов ва бошқалар Аудиовизуал журналистика ўқув кўлланма “O‘zbekiston” NMIU, 2019. 271б.
3. <https://www.youtube.com/watch?v=kpiWRJ1mTH4&list=PL6XRrncXkMaUTlptwbUFcIhCqFXG5Klj7&index=8>
4. <https://www.youtube.com/watch?v=FLIJ0fUzRP8&list=PL6XRrncXkMaUTlptwbUFcIhCqFXG5Klj7&index=15>
5. <https://www.youtube.com/watch?v=Wibd0uRbxhc&list=PL6XRrncXkMaW5p7muaR2s2IqjouQh4jqS&index=11>
6. https://www.youtube.com/watch?v=WZVH6g_xcz8&t=6s
7. <https://www.youtube.com/watch?v=FmL7fSNGwHo&list=PL6XRrncXkMaW5p7muaR2s2IqjouQh4jqS>
8. <https://www.youtube.com/watch?v=ePW52fJkXB4&list=PL6XRrncXkMaW5p7muaR2s2IqjouQh4jqS&index=761>